

Oriental Journal of Philology**ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY**

journal homepage:

<http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about>**ANALYSIS OF SOCIAL LEXICON RELATED TO IRANIAN CULTURE****Aziza Nishanbayeva**

senior lecturer

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

Ziyodakhan Abdullayeva

Student

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE**Key words:** culture, vocabulary, ritual, wedding, tradition, dress.**Abstract:** This article analyzes and compares social lexemes related to Iranian culture with Uzbek culture.**Received:** 28.05.23**Accepted:** 30.05.23**Published:** 01.06.23**ERON MADANIYATI BILAN BOG'LIQ IJTIMOYIY LEKSIKA TAHLILI****Aziza Nishanbayeva**

katta o'qituvchi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

Ziyodaxon Abdullayeva

Talaba

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA**Kalit so'zlar:** madaniyat, leksika, marosim, to'y, urf-odat, libos.**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Eron madaniyati bilan bog'liq ijtimoiy leksemalar tahlil qilingan, o'zbek madaniyati bilan qiyoslangan.**АНАЛИЗ СОЦИАЛЬНОЙ ЛЕКСИКОНЫ, СВЯЗАННОЙ С ИРАНСКОЙ КУЛЬТУРОЙ****Азиза Нишанбаева**

старший преподаватель

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

*Зиёдахан Абдуллаева**Студент**Ташкентский государственный университет востоковедения**Ташкент, Узбекистан***О СТАТЬЕ****Ключевые слова:** культура, лексика, обряд, свадьба, традиция, платье.**Аннотация:** В данной статье анализируются и сравниваются социальные лексемы, относящиеся к иранской культуре, с узбекской культурой.**KIRISH**

Dunyoning turli xil millatlar madaniyati kabi Eron madaniyati ham jahonda ko'zga ko'ringan madaniyatlardan biri hisoblanadi. Eron o'zining tarixi, she'riyati, marosimlari, ajib urf-odatlar, san'ati va boshqa sohalari bilan mashhurdir. Masalan, ko'plab Sharq mamlakatlarida mashhur hisoblangan Navro'z bayramining asl kelib chiqishi ham Eron madaniyatiga borib taqaladi va u fors tilida "yangi kun" degan ma'noni anglatib, bugungi kunda ko'plab Sharq mamlakatlarida keng nishonlanadi. Madaniyatning asosiy mazmunini tashkil etadigan turli xil marosimlar, urf-odatlar, bayramlar, milliy liboslar, san'at sohasi, milliy musiqalari, yashash tarzi har bir xalqni boshqa bir xalqdan ajratib turadigan jihat hisoblanadi. Eron madaniyati haqida gap ketganda esa ko'plab qiziqarli narsalar aytish mumkin. Quyida ijtimoiy madaniyatning bir qismi bo'lgan Eron to'ylari va unda qo'llaniladigan leksemalar tahlil qilindi.

ASOSIY QISM

خواستگاری – (sovchilik; taklif) – Bu an'ana "sovchilik" deb nomlanib, bo'lajak kuyovning oila a'zolari bir dasta gul va shirinliklar bilan tashrif buyurib, o'z taklifini bildiradi va ikki tomon rozi yoki noroziligi haqida fikrini aytadi. O'zbeklarda ham sovchilik asosan shu tarzda kechadi, ammo kuyovning oila a'zolari bo'lajak kelinning uyiga birinchi marta tashrif buyurganda asosiy maqsad tanishuv va qizni ko'rish bo'ladi. Agar qiz kuyovga va oila a'zolariga yoqsa ikkinchi marotaba tashrif buyurishadi. sovg'a salomlar esa hohishga ko'ra.

بله بران – (jalb qilish) – bu marosim o'zbek milliy an'alaridan "fotiha to'yi"ga to'g'ri keladi. Kuyovning oila a'zolari kelinning uyiga tashrif buyurib, qizning ota-onasidan rozilik olishadi va ular ham rozi ekanligini bildirishadi. Shu kuni kelinning seplari va mahr miqdori belgilanadi. Kuyovning ota-onasi qiz tomonga sovg'alar berishadi. Ularning an'anaviy sovg'alari tilla va kumush uzuk, kumush oyna va shamdonlar hisoblanadi. O'zbeklarda esa fotiha to'yida kelin va kuyov tarafdigilar bir-biriga sovg'a salomlar yuborishadi. Bular asosan yasatilgan kelin yoki kuyov kiyimlari, ishlatadigan buyumlari va turli hil taomlar bo'ladi.

مراسم خنابندان (xina bilan bo'yash marosimi) – bu marosim bizing an'analarga yod tushuncha bo'lib, Eronning bu an'anasiga ko'ra to'ydan bir kun oldin kelinning uyida qarindoshlar yig'ilib, vidolashuv marosimi o'tkaziladi va kelinning qo'llari xina bilan bo'yaladi.

مراسم پاتختی (to‘ydan keyingi birinchi kunni nishonlash marosimi) – bu marosimda kelin-kuyov gullar bilan bezatilgan joyda o‘tirishadi va kechaning asosiy qismi raqs va taomlar bilan o‘tadi. Bu an‘ana bizning “kelin salom” an‘anamizga qisman o‘xshab ketadi, ya‘ni kelin va kuyov oila a‘zolari kelinga va bir-biriga sovg‘a salomlar ulashadi. Ammo farqli tomoni shundaki, o‘zbeklarda kelin barcha mehmonlarga “kelin salom” qilsa, Eronda kelin bir stulga o‘tqazilib, mehmonlar uning yoniga kelib sovg‘alar berib ketishadi.

ماه عسل (Asal oyi) – bu udum dunyoning ko‘plab mamlakatlarida bo‘lgani kabi Eronda ham mavjud bo‘lib, to‘ydan keyin kelin-kuyov yolg‘iz birga vaqt o‘tkazish uchun ta‘til yoki sayohatga borishidir. Ammo bu an‘ana Eron milliy madaniyatiga taaluqli emas, shunchaki bugungi kunda Eronning ko‘plab oilalarida ommalashib kelayotgan an‘analardan biridir. Qolaversa bu an‘anani bizda ham yevropalashagan oilalarda uchratish mumkun.

Yuqorida keltirilgan marosimlar Eron to‘ylarining asosiy marosimlari hisoblanib, ulardan tashqari quyidagi marosimlar ham mavjuddir:

تهیه جهیزیه و انجام خرید عروسی (Sep tayyorlash va to‘y haridlarini qilish), (kelin seplari kuyovning uyiga olib boriladigan marosim, bu o‘zbeklarning “mol yoyar” marosimiga to‘g‘ri keladi), سائیدن کلهقند (kallaqand maydalash, ya‘ni kelin kuyovning hayoti shirin bo‘lsin deya ularning boshi ustidan chiroyli qilib yasatilgan kallaqand maydalashadi), خواندن خطبه عقد (عقدکنان), (nikoh o‘qitish marosimi), (to‘y karnavali), کارناوال عروس.

Aytish kerakki, Eron madaniyatining bir qismi bo‘lgan to‘y marosimlari fors tilida yuqoridagi kabi so‘z birikmalar va jumlar bilan ifodalanar ekan. Eronliklarning to‘ylariga va boshqa madaniy marosimlariga tashrif buyurgan kishi, uning go‘zalligi, ajibligi va qiziqarliligidan hayratda qolishi tabiiy. Erondagi har xil millat vakillarining urf-odatlarini, marosimlari bir-biriga mushtarakdir, lekin har bir millat o‘zining an‘analari, tarixi va joylashuviga qarab ularni turli xil nishonlaydi. Masalan: چارشنبه سوری (navro‘z bayramidan oldingi chorshanba) marosimi Eronning Xurosoni Razaviy viloyatida mashhurdir. Bu kunda odamlar balo qazolarni daf qilish uchun ko‘mir, tuz, tangalarni ko‘za ichiga solib, tomdan pastga qarab tashlab yuborishadi.

شب یلدا (eng uzun qish kechasi) bayrami Eronda keng nishonlanib, “Yaldo tuni” (eng uzun kecha) deb nomlanadi. Eronliklar bu kechani she‘rxonlik, mahalliy o‘yinlar bilan, turli hil mevalar, odatda esa tarvuz va anordan tayyorlangan taomlarni yeb, o‘tkazadilar.

جشن سده (Sada bayrami) - eronliklarning yana bir o‘ziga xos bayrami hisoblanib, bu marosim eng qadimgi marosimlardan biri, yasharish va o‘sish marosimidir. Bu bayram 323-hijriy yilda Eronning Islomdan keyingi eng katta madaniy bayrami sifatida ro‘yxatga kiritilgan.

مراسم پنجاه بدر (Panjoh bedar) - marosimi Eron viloyatlarida keng nishonlanadigan marosimlardan biri bo‘lib, bu marosimda odamlar shahar tashqarisidagi ibodatxonalarda to‘planib, yomg‘ir yog‘ishi uchun jamoat bo‘lib namoz o‘qishadi. بدر so‘zining ma‘nosi o‘zbek tiliga

“to‘linoy” deb tarjima qilinib, bu marosim O‘rdebehesht oyining 15-kunlariga to‘g‘ri kelgani uchun ham shunday nomlanadi.

مراسم کلیدزنی (kalit bilan urish) marosimi yana bir Eron madaniyatining o‘ziga xos marosimidir. Bu marosim asosan, ayollarga xosdir. Ya’ni bu kunda ayollar o‘zlari bilan novvot, surmadon, oyna olib kelib, yog‘ochdan yasalgan kalitlar bilan uy eshiklarini taqqilatishadi, uy bekalari esa olib kelingan narsalardan foydalanib, o‘zlari qilgan niyatlari amalga oshishiga ishonishadi.

Yuqorida sanab o‘tilgan madaniy marosimlar faqat Eron mamlakatiga xos, bizning madaniyatimizga bunday marosimlarning aloqasi deyarli yo‘q. Shuningdek, milliy madaniyatga tegishli bo‘lgan leksik birliklar sifatida Eron liboslarini ham sanab o‘tish mumkin. Milliy liboslar har bir millatni boshqa millat vakillaridan ajratib turuvchi, o‘ziga xosligini namoyon etuvchi hamda boshqa xalqlarni o‘ziga jalb qiluvchi vositadir. Eron liboslari haqida fikr yurtiganimizda, tasavvurimizda jozibali hamda yopiq kiyingan ayollar, o‘ziga qulay hamda keng kiyimlardan foydalangan erkaklar gavdalanadi. Quyida Eron milliy liboslaridan bir qanchasini sanab o‘tamiz:

1. کمرچین – ayollar kamzuli bo‘lib, bahmal matodan tikiladi, yengi uzun va oldi ochiq bo‘ladi;

2. گلونی – oddiy ip yoki ipakdan tikiladigan bosh kiyimi;

3. لچک – ayollar bosh kiyimi;

4. پاتول – erkaklarning shu nom bilan ataluvchi shimi;

5. چارقد – ayollar sochlarini yopishi uchun ishlatadigan sharf;

6. کویک – keng yengli va yoqasiz tikilgan ko‘ylak;

7. جبن – yengi uzun, past qismi turli shakllar bilan bezatiladigan ayollar ko‘ylagi.

Mazkur libos nomlari Eron mamlakatining milliy liboslaridan bir qanchasi hisoblanib, o‘zining jozibadorligi, maftunkorligi va go‘zalligi bilan boshqa millat milliy liboslaridan ajralib turadi. Ayniqsa ayollar liboslari, Eronlik ayollar go‘zalligiga, ko‘rkiga ko‘rk qo‘shib turadi. Bugungi kunda ijtimoiy hayotda Eronliklar ushbu milliy liboslardan har doim foydalanishmasa ham, maxsus bayram va marosimlarda ularni kiyishadi.

Maqolamiz so‘ngida tahlil jarayonida keltirilgan so‘zlarni bir jadval asosida keltiramiz:

sovchilik; taklif	خواستگاری
bale bo‘ron marosimi (jalb qilish)	بله بران
xina bilan bo‘yash marosimi	مراسم حناپندان
to‘ydan keyingi birinchi kunni nishonlash marosimi	مراسم پاتختی
asal oyi	ماه غسل
sep tayyorlash va to‘y haridlarini qilish	تهیه جهیزیه و انجام خرید عروسی
kelin seplari kuyovning uyiga olib boriladigan marosim	جهاز بران
kallaqand maydalash	سائیدن کلهقند
nikoh o‘qitish marosimi	خواندن خطبه عقد (عقدکنان)

to'y karnavali	کارناوال عروس
navro'z bayramidan oldingi chorshanba	چارشنبه سوری
eng uzun qish kechasi	شب یلدا
Sada bayrami	جشن سده
panjoh bedar marosimi	مراسم پنجاه بدر
kalit bilan urish marosimi	مراسم کلیدزنی
bahmal matodan tikilgan, yengi uzun va oldi ochiq bo'lgan ayollar kamzuli	کمرچین
oddiy ip yoki ipakdan tikiladigan bosh kiyimi;	گلونی
ayollar bosh kiyimi	لچک
erkaklarning shu nom bilan ataluvchi shimi	پاتول
ayollar sochlarini yopishi uchun ishlatadigan sharf	چارقد
keng yengli va yoqasiz tikilgan ko'ylak	کوبنک
yengi uzun, past qismi turli shakllar bilan bezatiladigan ayollar ko'ylagi	جبین

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkin-ki, ma'lum bir tilni o'rganayotgan o'quvchi albatta o'sha davlat tarixiga, siyosatiga, hayot tarziga va madaniyatiga qiziqadi. Biz ham fors tilini o'rganuvchi sifatida Eron madaniyatiga qiziqib, u bilan bog'liq bo'lgan urf-odatlariga, to'y marosimlariga, milliy liboslarga oid bir qancha ijtimoiy leksikalarni tahlil qildik. Misollarni o'rganish jarayonida biz fors va o'zbek madaniyati o'xshashligini, bir qancha misollar yordamida ko'rib chiqdik. Masalan, خواندن خطبه, جهازبران, انجام خرید عروسی, تهیه جهیزیه و مراسم پاتختی, مراسم پنجاه بدر, مراسم کلیدزنی, شب یلدا, چارشنبه سوری, سائیدن کلهقد kabi marosimlarining o'zbek madaniyatiga o'xshashi borligini, ammo kabi marosimlar esa faqat Eron madaniyatiga xosligini ko'rib chiqdik. Zero, biror bir millatni anglash uchun avvalo uning madaniyatini o'rganmoq lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. – М., 2001. – С. 573.
2. Tasvirlarda Eron bo'ylab sayohat. – T., 2013. – B. 168.
3. Рубинчик Ю.А. Персидско-русский словарь. – М., 1970.
4. Quronbekov A. Fors tili leksikologiyasi. – T., 2009.
5. Tasvirlarda Eron bo'ylab sayohat. – T., 2013.
6. <https://namnak.com>
7. <https://www.soorban.com/marriage-customs>
8. <https://jadvalyab.ir/blog>
9. <https://newsin.ir/fa/content>